



Respublika
Ta'lim Markazi



“LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to'plami

2022-yil 18-may

TOSHKENT

UDK: 81:301. 8:547.68.001 (374.2)

Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. Elektron nashr. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2022. – **b.**

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Lingvodidaktika kafedrası tomonidan tayyorlangan.

Mas’ul muharrir:

Raupova Laylo Rahimovna – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

B.R. Mengliyev – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

G‘.H. Hamroyev – Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Sh.S. Abdiraimov – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

K.M. Mavlonova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrası dots.v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

I.A. Ishonxanova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrası o‘qituvchisi.

D.A. To‘rayeva – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrası katta o‘qituvchisi.

H.M. Ortiqova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrası o‘qituvchisi.

F.A. Saidova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrası o‘qituvchisi.

V.E. Alimbekova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrası o‘qituvchisi.

H.A. Baxtiyorova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrası magistranti.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti Kengashining 2022-yil 10-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

- Egamqulova Kimyoxon (O'zbekiston)
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni hayotiy vaziyatlarga tayyrolash
- Navruzova Xosiyat (O'zbekiston)
7-sinf o'quvchilarida qo'shma gap shakllarining o'zlashtirilishi
- Xasanova Yulduzxon (O'zbekiston)
Morfologik bilim berish tamoyillari
- Avezova Dilnura (O'zbekiston)
Orfoepik mashq – ko'nikma va malaka hosil qilish asosi
- Arolova N. (O'zbekiston)
Lingvodidaktikada psixologik yondashuv
- Xayriddinova Mohina (O'zbekiston)
Yozish ko'nikmasini shakllantirishda rivojlantiruvchi usullarning ahamiyati
- Yusupova Aziza (O'zbekiston)
Til ta'limida integratsiya
- Mamajonova Navruza (O'zbekiston)
O'quvchilarda so'z o'zlashtirish masalasining o'rganilishi
- Xakimova Nilufar (O'zbekiston)
Ona tili darslarida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini shakllantirishning yondashuv va tamoyillari
- Normuminova Dilobar (O'zbekiston)
O'qish savodxonligining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar
- Baxtiyorova Husnora (O'zbekiston)
6-sinf ona tili darslarida matn tuzulishini o'rgatishning mazmun-mohiyati
- Davronova Zebiniso (O'zbekiston)
O'quvchilarda tasviriy matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish zarurati
- Yo'ldosheva Shahnoza (O'zbekiston)
Ravish so'z turkumining maktab darsliklarida berilishi
- Abdusattorova Farangiz (O'zbekiston)
1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida berilgan ayrim iboralarining ma'nolari
- Xomidjonova Yulduzxon (O'zbekiston)
O'quvchilarda eshitib tushunish ko'nikmasini shakllantirish zarurati
- Botiraliyeva Mohinur (O'zbekiston)
Tinglab tushunishning o'quvchilar og'zaki nutqini shakllantirishdagi o'рни
- Lushiyeva Ro'shana (O'zbekiston)
Ma'lumot-axborot hujjatlari bilan ishlash muammolari

O'QUVCHILARDA SO'Z O'ZLASHTIRISH MASALASINING O'RGANILISHI

Navruza Mamajonova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarda lug'at boyligini rivojlantirish va so'z o'zlashtirish qonuniyatlari haqida ma'lumot berilgan. Shu mavzuda ish olib borgan tadqiqotchilar va ularning nazariyalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *oraliqda takrorlash, kontekst, so'z boyligi, so'z o'zlashtirish, yangi so'z.*

Annotation

This article provides information on the laws of vocabulary development and vocabulary development. The researchers who worked on this topic and their theories were discussed.

Keywords: *interval repetition, context, vocabulary, word acquisition, new word.*

Bugungi kunda til ta'limidagi eng dolzarb muammolardan biri – bu o'quvchilarda so'z boyligining yetishmasligi hamda dars jarayonida foydalanish uchun o'quv lug'atlarining kamligidir. Bunday vaziyatda o'quvchilarga individual yondashuv, so'z ma'nosini kontekst orqali o'rgatuvchi amaliy metodlar yordam beradi.

Kontekst – (lotincha contextus – jips, bog'lanish, qo'shilish) – og'zaki va yozma nutq (matn)ning nisbatan tugal qismi. Kontekst o'z tarkibidagi so'zlar yoki iboralarning ma'nolarini aniqlashga imkon beradi. U poetika bilan bog'liq bo'lib yozuvchi mahoratini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi [O'zME, 2000: 1-jild]

Til darslarida o'quvchilarning so'z boyligini rivojlantirish bo'yicha bizda bir nechta ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. K.Qosimova, T.Ziyodova, M.Saidov va N.Alavutdinovanning ilmiy tadqiqot ishlari shular jumlasidan. Ushbu tadqiqotlarda o'quvchilarning lug'at boyligini rivojlantirish uchun bir qator tavsiyalar berilgan, ammo so'zni turli kontekstlarda o'qitish masalasiga alohida e'tibor qaratilmagan.

Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda ona tili darslarida so'z o'zlashtirishda o'qituvchiga ko'p vazifa yuklanadi.

O'qituvchilar nutqda qo'llanishi tushuntirilgan so'zlarni o'quvchilarning faol lug'at boyligiga aylantirish ustida bo'sh ishlaydilar [Qosimova, 1966: 47].

O'qituvchi so'z ustida ishlar ekan, asosiy e'tiborni umumxalq ko'p ishlatadigan oddiy so'zlarga emas, balki bola nutqida kam qo'llanadigan so'zlarga qaratishi lozim... O'quvchi tilimizda mavjud bo'lgan ko'p ma'noli so'zlarning barcha ma'nolarini birato'la o'zlashtirib ololmaydi. Chunki u quyi sinflarda so'zning ma'lum bir ma'nosiga duch kelsa, keyingi sinflarda shu so'zning yangi ma'nolariga to'qnash keladi. So'zning barcha ma'nolari o'quvchiga ayon bo'lsagina bu so'zlardan foydalanish imkoniyatlari erkin bo'ladi. [Ziyadova, 1996: 13–14].

Bu jarayon, albatta o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Lekin bunda shu so'zni qanday o'qitish va bolaning so'z o'zlashtirish jarayonini ham hisobga olish lozim. Chunki so'z o'zlashtirish jarayoni bevosita ongosti faoliyati bilan bog'liq.

Ingliz tilshunos olimi Paul o'z tadqiqotlarida yangi so'z o'rganishda takrorlashning muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Takrorlash so'z boyligini o'rganish uchun juda muhim, chunki o'quvchi har bir so'z haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lish kerak. So'zni bir marta ko'rish shu so'z haqidagi barcha ma'lumotni bilish uchun yetarli emas. So'zning barcha ma'nolarini bilish uni osonlik bilan o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, takrorlash bilim sifati, miqdori va kuchini oshiradi. 1981-yilda Bloom va Shuell, 1987-yilda Dempster, 1990-yilda Baddeley o'tkazgan xotira tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, oraliqda takrorlash ommaviy takrorlashdan ko'ra so'z ma'nosi o'zlashtirilishini samaraliroq ta'minlaydi. Ommaviy takrorlash, (masalan o'n besh daqiqa davomida takrorlash), bir vaqtning o'zida so'zni davomli takrorlashdir. Oraliqda takrorlash degani takrorlanishlarni uzoq vaqt davomida yoyilishini anglatadi, ammo umuman so'zlarni o'rganishga ko'p vaqt sarflamaydi. Masalan, siz so'zlarni hozir uch daqiqa, bir necha soat ichida yana uch daqiqa, kuniga uch daqiqa, ikki kun ichida uch daqiqa va nihoyat haftada uch daqiqa davomida o'rganishingiz mumkin. Umumiy mashg'ulot vaqti o'n besh daqiqa, lekin u o'n yoki undan ortiq kun davomida tarqaladi. Vaqti-vaqti bilan bunday takrorlash uzoq vaqt esda qoladigan o'rganishga olib keladi. Takrorlashlar ko'payib boradigan vaqt oralig'ida joylashtirilishi kerak [Paul, 2000: 114].

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, oraliqda takrorlash bolaning xotirasida uzoq muddatga so'z o'zlashtirilishini kafolatlaydi. O'quvchi biror so'zni o'rganganidan so'ng ko'p vaqt o'tmay, uning ongida shu so'zni unutishga moyillik paydo bo'ladi.

Tadqiqotlari davomida Griffin (1992) ko'p hollarda unutish o'rganishdan ko'p o'tmay sodir bo'ladi, degan xulosaga keldi [Paul, 2000:114]. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, bir so'zni besh kun davomida uch daqiqadan takrorlash shu so'zni bir vaqtning o'zida o'n besh daqiqa takrorlashdan afzal. Oraliqda takrorlash mashqlari so'zning ongda davomli saqlanishini kafolatlaydi. Ushbu yondashuv inson ongining so'z ma'nosini o'zlashtirish tamoyiliga uyg'undir.

Marianing fikriga ko'ra, so'z boyligining yetishmasligi o'quvchining ko'p xato qilishiga sabab bo'ladi. Matnda so'zning qaysi ma'nosi nazarda tutilganligini aniqlash, zarur bo'lgan kontekstni, mavzuni va xulosani bilish uchun o'quvchida shu so'z haqida yetarli ma'lumot bo'lishi kerak [Carmen, 2020: 13–14].

Ma'lumki, o'quvchining nazariyadan amaliyotga emas, amaliyot asosida nazariy xulosalar chiqarishga borishi eng samarali yondashuvlardan biridir. Ya'ni o'quvchiga matn beriladi va uning mazmuni, grammatik elementlari tahlil qildiriladi. [Murodova, 2020: 31].

O'qituvchi ma'lum bir yangi so'zni o'quvchiga tushuntirmoqchi bo'lsa ushbu so'z matn tarkibiga kiritiladi va o'quvchilar matnga emas, balki matndan jumlagi qarab ishlashadi. Tilshunoslikning ushbu pedagogik yondashuvi o'quvchilarga shu so'zning kontekstdagi ma'nosi, uning qanday maqsadlarda yaratilgani, qanday kelib chiqqaniga qarab farqlanishini ko'rsatishga o'rgatadi. Bu

kabi pedagogik yondashuvlar nafaqat savodxonlikni balki lugʻat boyligini yaxshi rivojlanishiga muhim hissa qoʻshadi. Demak, bir soʻzni oʻrganish uchun uning barcha kontekstdagi maʼnolarini bilish shu soʻzni oson oʻzlashtirishga yordam beradi.

Xorijda oʻtkazilgan tadqiqotlardan shu anglashiladiki, biz yangi soʻz boyliklarini kontekstda oʻqitishni boshlashimiz kerak [Nunan, 1991: 122]. Yangi soʻzni turli kontekstlarda oʻqitish shu soʻzning maʼno qirralarini oʻrganish bilan birga oʻquvchining soʻz boyligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shuni unutmaslik lozimki, tilimizda mavjud boʻlib oʻquvchi birinchi marta duch kelayotgan soʻzlar ham uning uchun yangidir. Shu sababli topshiriq uchun soʻz tanlashda oʻqituvchi uning isteʼmol doirasini hisobga olishi lozim. Iloji boricha oʻquvchilar nutqida kam uchraydigan yoki umuman uchramaydigan soʻzlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Carmen M. Learning vocabulary in context through explicit instruction improves language learning in the classroom. Dissertation for teaching english to speakers of other language, 2020.
2. Murodova A. 5-sinf oʻquvchilarida eshitib tushunish malakasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari: Mag.diss. – T., ToshDOʻTAU, 2020.
3. Nunan D. Language Teaching Methodology. A textbook for teachers, 1991.
4. Paul. Learning vocabulary in another language, 2000.
5. Qosimova K. Oʻzbek maktablarining 5-sinfida ona tili darslarida lugʻat ustida ishlash: ped.f.nomz. diss. – T., 1966.
6. Ziyadova T. Ona tili taʼlimi jarayonida oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish: ped.f.nomz. diss. – T., 1995.
7. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent, 2000.